

FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

TURSUNOV Farrux G‘ulomovich

*Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
Fan va texnologiyalar universiteti Yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori
Qarshi davlat universiteti
tadqiqotchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15349228>

QASHQADARYO TOJIKLARINING OILA VA OILAVIY MAROSIMLARI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Qashqadaryo vohasining tojiklarining beshikka bog‘lash (gahvorabandon), sunnat to‘yi - *xatnato‘y*, to‘ydagi sarpo yoki sovg‘a – *to‘yona*, kelin tushirish – *kelinfarordan*, kelin uyiga kuyovnikidan tayyorlanib olib boriladigan taom o‘g‘ri oshi – *duzzi osh*, go‘dakning tug‘ilish kuni - *ro‘zi tavallud*, ism qo‘yish – *nom mondan*, chaqaloqni cho‘miltirilgan suv – *obi chilla*, tish chiqarish – *digdonkafon*, chaqaloqni beshikka bog‘lash – *gavorabandon*, chillaqochdi – *chillagirezon*, chilla saqlash – *chilladoran*, chaqaloq tirnog‘ini nuroniy tojik onaxon yoki otaxonlar tomonidan olinadigan birinchi tirnoq – *noxungiron* va birinchi soch olish – *mo‘ysargiron* kabi marosim va rasm rusumlar etnografik materiallar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: oilaviy marosimlar, beshikka bog‘lash (*gahvorabandon*), sunnat to‘yi - *xatnato‘y*, kelin tushirish – *kelinfarordan*, o‘g‘ri oshi – *duzzi osh*, go‘dakning tug‘ilish kuni - *ro‘zi tavallud*, ism qo‘yish – *nom mondan*, chaqaloqni cho‘miltirilgan suv – *obi chilla*, tish chiqarish – *digdonkafon*, chaqaloqni beshikka bog‘lash – *gavorabandon*, chillaqochdi – *chillagirezon*, chilla saqlash – *chilladoran*.

СЕМЬЯ И СЕМЕЙНЫЕ ОБРЯДЫ КАШКАДАРЬИНСКИХ ТАДЖИКОВ

АННОТАЦИЯ

В этой статье рассказывается о таджиках Кашкадарьинского оазиса, таких как привязывание к колыбели (*гахворабандон*), обрезание свадьбы - *хатнатуй*, sarpo на свадьбе или подарок – *kelinfarordan*, разгрузка невесты – из свадебного фарара, еда, которую жених привозит в дом невесты, вор Аши – *дуззи ош*, день рождения ребенка - пост рождение, именины – *ном мондан*, вода для купания ребенка – *Оби Чилла*, прорезывание зубов – *дигдонкафон*, привязывание ребенка к кроватке – *гаворабандон*, чиллагедди – *чиллагирезон*, хранение Чилла – ритуальные и живописные рисунки, такие как *чилладоран*, первый ноготь – *нохунгирон* и первая стрижка – *муссаргирон*, которые получают таджикские мамы или папы, которые просветляют ноготь ребенка, были проанализированы на основе этнографического материала.

Ключевые слова: семейные обряды, привязка к колыбели (*гахворабандон*), обрезание свадьбы - *хатнатуй*, высадка невесты – *kelin farordan*, вор Аши – *дуззи ош*, день рождения ребенка - пост рождение, именины – *ном мондан*, купание ребенка в воде – *Оби Чилла*, прорезывание зубов – *дигдонкафон*, привязка ребенка к колыбели – *гаворабандон*, чиллакочди – *чиллагирезон*, сохранять чилла – *чилладоран*.

FAMILY AND FAMILY RITES OF KASHKADARYA TAJIKS

ANNOTATION

In this article, the dish of the Tajiks of the kashkadarya Oasis, tied to the cradle (gahvorabandon), circumcised wedding, sarpo at the wedding or a gift - wedding, bridal drop – made from kelinfaror, groom's own to the bride's house – thief oshi – duzzi osh, baby's birth day - rosy birthday, name – name mondan, baby bathed water – obi chilla, tooth extraction – digdonkafon, baby tie – gavorabandon, chillaqochdi – baby chillagirezon, Chilla storage – ritual and painting duties, such as chilladoran, the baby's nail, the first nail to be taken by the luminous Tajik mother, or the otahons – noxungiron, and the first Hair Removal – mossargiron, were analyzed on the basis of ethnographic materials.

Keywords: family rituals, cradle binding (gahvorabandon), circumcision wedding - hatatoy, bride lowering – kelinfarordan, thief oshi – duzzi osh, baby birth day - birth anniversary, name – name mondan, baby bathing water – obi chilla, teething – digdonkafon, baby cradle binding – gavorabandon, chillaqochdi – chillagirezon, chilla storage – chilladoran.

KIRISH

2020-yil 31-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” [1] gi 820-son qarori qarori qabul qilingan edi.

Qashdaryo tojiklarining marosimlarida millat ma’naviy qiyofasi o‘z aksini topgan. Vohaning tog‘li hududida yashovchi tojiklarda ma’naviy madaniyatning qadimiy ildizlari ko‘proq saqlanib qolingan. Qashdaryo tojiklariga xos bo‘lgan oilaviy marosimlar to‘g‘risida alohida tadqiqot olib borilmagan.

Qashdaryo vohasi tojiklarida hamon ajdodlar, ularning ruhlariga murojaat qilish unsurlari saqlanib qolingan. Tojiklarning to‘ylarida va ziyorat qilinganda oq mato, un, shakar kabilar poklik ramzi hisoblanib, marosim ishtirokchilari ezgu niyatlarga erishishiga ishoniradi. Vaqt o‘tishi bilan tojiklarning marosimlari soddalashib bormoqda.

ASOSIY QISM

Bola tug‘ilishi (ro‘zi tavallud) bilan bog‘liq marosimlar.

Kasbi tumani Qamashi qishlog‘idagi tojik ayollarining e’tirof etishicha, bola tug‘ilganda kindigi qaynoq suvga solinib mikrobdan tozalangan pichoq bilan kesilgan va o‘rniga qozonning kora kuyasi surib qo‘yilgan. El orasida obro‘li nuroniy kishi bolaning kindigini oq mato bilan bog‘lab qo‘ygan. Qirq kun (*chilla*) davomida bola yolg‘iz qoldirilmagan, “*yomon ko‘z*”dan saqlanish uchun yaqin qarindoshlardan boshqa kishilarga ko‘rsatilmagan.

Tojiklar to‘y marosimlarining bir qismi chaqaloqning tug‘ilishi bilan bog‘liq bo‘lib, go‘dakning tug‘ilish kuni - *ro‘zi tavallud*, ism qo‘yish – *nom mondan*, chaqaloqni cho‘miltirilgan suv – *obi chilla*, tish chiqarish – *digdonkafon*, chaqaloqni beshikka bog‘lash – *gavorabandon*, odatda chaqaloq tug‘ilishidan 40 kun o‘tib bajariladigan marosim chillaqochdi – *chillagirezon*, chilla saqlash – *chilladoran*, chaqaloq tirnog‘ini nuroniy tojik onaxon yoki otaxonlar tomonidan olinadigan birinchi tirnoq – *noxungiron* va birinchi soch olish – *mo‘ysargiron* kabi rasm rusumlar bajarilgan.

G‘elon qishlog‘ida bola tug‘ilgandan 7 kun o‘tgandan keyin *begimuborak* marosimi ado etilgan, bolaning birinchi marotaba sochi olinganda *sarkalon* marosimi bajarilgan. Odatga ko‘ra bola sochini birinchi bor el orasida obro‘li muysafed olgan.

Beshikka bog‘lash (*gahvorabandon*) - chaqaloqni birinchi marta yangi beshikka bog‘lash munosabati bilan o‘tkaziladigan oilaviy marosim. Yangi turmush qurganlar farzandli bo‘lganda birinchi bo‘lib, odatda bola tug‘ilgandan so‘ng (ba‘zi joylarda tug‘ilgandan keyin 3-7 kundan keyin) kelinning ota-onasi tug‘ilgan chaqaloqqa beshik va sovg‘alar sotib oladilar va ko‘rsatilgan muddatda boshqa sovg‘alar bilan birga qizining uyiga olib boradilar.

Bayram va ziyofatdan so‘ng, yangi beshik uying o‘rtasiga qo‘yiladi, u yerda uy atrofidagi ayollar o‘tirishadi. Har qanday kampir yoki sog‘lom va solih farzandlari bo‘lgan baxtli ayol, ibodatlar bilan va yaxshi niyat beshikni tayyorlaydi. Oilaning qarindoshlaridan yana bir ayol likopchada isiriq tutatadi va beshikning atrofida va ostida harakat qiladi. Beshik tayyor bo‘lgach, kampir yoki ko‘p bolali ayol chaqaloqni qo‘lidan ushlab, beshikka ikki marta, boshini oyoq o‘rniga, oyog‘ini esa beshikka qo‘yadi, atayin xato qiladi.

Har safar kampir hozir bo‘lgan odamdan so‘raydi: “Bu yerda yotishim kerakmi?”. Ular darhol javob berishadi: “Yo‘q, buvisi, to‘g‘ri uxlang”. Uchinchi bosqichda u chaqaloqni to‘g‘ri uyquga qo‘yadi va ko‘rsatkich barmog‘ini bolaning og‘ziga qo‘yib: “Uxla, bolam, senga berdim” deydi. Ba‘zi joylarda bolani beshikka bog‘lagandan so‘ng, doya “Bo‘rilar uyqusi, itlar uyqusi, qo‘ni-qo‘shnilar uyqusi, hammasi sendan!” duosini o‘qiydi.

Beshikni o‘rab, chaqaloqning onasi sovg‘a sifatida kampir yoki doyaning boshiga oq ro‘mol tashlaydi. Shuningdek, chaqaloqni bog‘lab bo‘lgach, chaqaloqning onasi beshik atrofiga yong‘oq, malina, shakar va pechene sepib, marosim ishtirokchilari, ayniqsa, bolalar ularni teradi.

Ayrim viloyatlarda chaqaloqning onasi xamirturushsiz nondan uch-etti tishlab olib, luqmalarni beshikka, yostig‘i ostiga qo‘yadi, shunda ham bolaning rizqi ko‘payadi, ham non uni himoya qiladi.

Ba‘zi odamlar zararli afsonaviy mavjudotlardan himoya qilish uchun beshik ko‘rpachasi ostiga pichoq yoki temir asbob qo‘yishadi.

Yomon ko‘zdan himoya qilish uchun beshikga ko‘z tumor osilgan. Tojikistonning turli hududlarida, shuningdek, O‘zbekiston tojiklarida beshik to‘y marosimini o‘tkazish tartibi va urf-odatlarini bir-biridan farq qiladi.

To‘y marosimlari.

Qashqadaryo vohasidagi tojiklarning to‘y marosimlari tumanlarda, qishloqlarda va hatto ayrim mahallalarda farq qiladi. Biroq to‘y marosimlari turlicha nomlansada, o‘zbek to‘y marosimlari bilan umumiy o‘xshashlik kasb etadi.

A. Shernazarovning e‘tirof etishicha, vodiy to‘y marosimlari “Hinobandon”, “Huy bale”, “Hay lola, lola, lola”, “Ho guli bog‘i man biyo”, “Salomnoma”, “Yor-yor, yorone”, “To‘y muborak, al muborak”, Xush omaded, “Xush omaded kelinbivā”, “To‘y muborak bod”, “Ey hamzamu Zaynab nomi xudo muborak” kabi marosimlar to‘y mazmunini ifodalaydi va ijro etiladi [3].

O‘zbeklar va tojiklar azaldan bir makonda istiqomat qilib kelganligi tufayli ularning tarixi va urf-odat hamda marosimlari o‘zaro mushtarak shakllangan. Ikki millatga xos bo‘lgan: - suv va olovni muqaddas deb bilish, yerni e‘zozlash va unga urug‘ qadash, kelin-kuyovning chimildiqqa kirishidan avval olov atrofida aylantirish, ajdodlarni yod etib chiroq yoqish, ziyoratgohlar yonida o‘sgan daraxtlarga niyat aytib latta bog‘lash kabi urf-odat hamda marosimlar zardushtiylikdan meros bo‘lib qolgan.

Tojiklarning qarashlariga ko‘ra olovning poklovchi-tozalovchi va shifobaxsh xususiyatlari bor. O‘zbeklar kabi tojik kelin-kuyovlarining olov atrofida aylanishi odati hindlar va slavyan xalqlarida ham mavjud. Tojiklarning qarashlariga ko‘ra bunday marosimlar yaxshilikka olib boradi. Bugungi kunda o‘zbek va tojik millatiga mansub yoshlari to‘ylarning dabdabali o‘tishiga emas ayrim marosimlarning samimiy bajarilishiga e‘tibor qaratishlari lozim. Biroq, tojiklarning keksa avlod vakillari o‘z qarashlariga sodiq qolmoqda. Ya‘ni baxshilar, kelin salom aytuvchilar, go‘yandalar o‘z kasblarini yosh avlodga o‘rgatish an‘anasi saqlanib qolinmoqda. O‘tmishdan qolgan urf-odat va marosimlar katta mablag‘ talab etmagan. G‘elon qishlog‘idagi to‘ylarda qalin puli qimmat emas *padar (ota) vakiliga* bir oz pul beriladi xolos. Shuning uchun bo‘lsa kerak g‘elonliklar orasida oilaviy ajrimlar kam uchraydi. Tojiklarning ajdodlari tomonidan yaratilgan urf-odat va marosimlar ajoyib tarzda avlodlar orasida saqlanib qolgan.

Quyi Qashqadaryodagi to‘y marosimlari eng qadimiy an‘analardan birib bo‘lib hisoblanadi. Tojiklarning sunnat to‘yi - *xatnato‘y*, to‘ydagi sarmo yoki sovg‘a – *to‘yona*, kelin tushirish – *kelinfarordan*, kelin uyiga kuyovnikidan tayyorlanib olib boriladigan taom o‘g‘ri oshi – *duzzi osh* deb atalgan.

Qashqadaryo tojiklari nikoh to‘yi marosimidan keyin kuyov(domod)ning uyida *ro‘ynamokon*, *ro‘ykushon* (*yuz ochdi, bet ochar*) marosimi o‘tkazilgan. Marosim ado etilayotgan vaqtda kelinning yuziga oq ro‘mol yoki mato tashlab qo‘yilgan.

Shahrisabz tumanidagi Ko‘l qilog‘i tojiklari tog‘li toshloq hududda istiqomat qilganliklari tufayli to‘ylarini to‘yxonalarda o‘tkazishmaydi. Xonadonlarda bo‘ladigan to‘y marosimlarida boshqa hududlarda uchramaydigan odat ya‘ni, to‘yga kelgan mehmonlar yoshi bo‘yicha alohida xonalarga (*qo‘shxonalariga*) joylashadi. Avval eng keksa yoshli 70 yoshdan 100 yoshgacha bo‘lgan erkaklar 1-qo‘shxonaga, undan keyingi 60 yoshdan 70 yoshgacha bo‘lgan mehmonlar 2-qo‘shxonaga joylashadi. Yosh taomili bo‘yicha Ko‘l qishlog‘ida jami 13 ta qo‘shxona tuzilgan. Asosan maktab bitiruvchilari 13-qo‘shxonaga o‘tirishadi. Bu xususiyat G‘elon tojiklariga ham xos bo‘lib, to‘y marosimida ayollar uchun kelin bazmi o‘tkazilgan. G‘elon va Ko‘l qishloqlaridagi to‘ylarda ayollar va erkaklar ishtirokidagi marosimlar alohida o‘tkazilgan.

O‘zbeklardagi kelin salom odati Quyi Qashqadaryo tojiklarida *qasabandon* deyiladi.

Tojiklarda yaqin kunlargacha kuyovning uyidan kelinning uyigacha o‘g‘ri tovoq (*duzzi taboq*) olib borilgan. Bu udum bajarilayotganda kuyovnikiga osh tayyorlanib qozoni bilan kelinning uyiga olib borilgan.

Ayollarning bezak-taqinchoqlari asosan, zirak va uzukdan iborat. Sochlariga oddiy yoki qora ipdan yasalgan chura, ya‘ni kokil taqadi. Kokil uchiga xilma-xil rangli ipdan popuk va munchoq osiladi [2].

To‘yning ertasi kuni kelin tushgan xonadonda *xinobandon* (xina qo‘yish) udumi bajarilgan. *Xinobandon* (xina qo‘yish) udumi kuy-qo‘shiqqa ulanib, hazilomuz she‘rlar va aytishuvlar aytilgan:

*Davideme davidem,
Usmi siyoh xaridem,
Ba qoshi kelin molidem,
Kelin dar boloxona,
Domod dar mehmonxona,
Domod aspasha ob dod,
Kelin zulfasha tob dod,
Kelina burdem soy kati,
Aspi aloi boy kati,
Taki dari O‘g‘uloy kati!
Sanduqchekon choy kati.*

To‘y kuni to‘yga kelgan ayollarning keng yenglariga mo‘l ko‘l rizq ramzi bo‘lgan - g‘alberga solingan shirinliklardan olib bir siqimdan tashlab chiqilgan.

*Hoy hoy mo giriftem
Oy momoya giriftem
Choreg reza giriftem
Yak gaz bofa giriftem*

Kelin salomda aytilgan. Quyi Qashqadaryo tojiklari to‘y marosimlarida o‘zbekcha kelin salom aytimlarga ham ayollar tomonidan *“hazor alek”* (*ming marta alek*) so‘zi qaytarilgan.

*Duxtaraki hoy-hoy shudas
Ostinake loy shudas
Rafta go‘et dababe
Duxtarki bozinger shudas*

Bo‘yi yetgan qizlarga qarata aytilgan.

Qamashi qishlog‘idagi tojiklar yaqin yillargacha kelinni urg‘ochi otga mindirib kuyovning uyiga olib borishgan. Ot jilovining ikki tomonini kelinning yaqin qarindoshlari (aka-ukasi, tog‘asi yoki amakisi) ushlab borgan.

Tojik millatining qarashlariga ko‘ra yetti soni mo‘jizaviy xarakterga ega. Haftaning yeti kuni, Xizr alayhisalom nazari tushgan insonlarning yetti o‘g‘il ko‘rishi, Yetti pirni ziyorat qilish, Langar ota, Ko‘hna Fazli kabi joylarda yetti avliyoning dafn etilganligi haqidagi rivoyatlar va hokazo.

Qashqadaryo vohasi tojiklari qarashlariga ko‘ra, *jin va alvastilar* yovuzlik timsoli bo‘lib hisoblanadi. Tojiklarning tasavvuriga ko‘ra, insonning kasalligi kelib chiqishiga sabab *jin* bo‘lsa, tug‘ruq vaqtida ayolga va 40 kun o‘tguncha (chilla davrida) chaqaloqqa *alvasti* rahna solishi mumkin deb hisoblangan. Voha tojiklari alvastini turlicha yovuz ko‘rinishda tasavvur qiladi. Mahalliy aholining qarashlariga ko‘ra alvasti yolg‘iz insongagina ko‘rinadi. U olovdan va itdan qo‘rqar ekan. Kasbi tumani tojiklarining fikriga ko‘ra, *jin* va *alvastilar* ko‘proq kul to‘kilgan joyda yashaydi. Ayniqsa tunda bu joydan o‘tish xatarli bo‘lib hisoblangan. Qashqadaryoning dasht qismida ko‘p uchraydigan shoqollar ajina kabi chaqaloq tovushini chiqarar ekan.

Kasbi va Mirishkor tumanidagi cho‘ponlarning fikriga ko‘ra, dalada u uxlayotgan joyning to‘rt tomoniga suv sepilsa *jin* yoki ajinalar unga yaqin kela olmas ekan.

XULOSA

Voha tojiklari o‘troq madaniyat elementlarini o‘zida saqlab qolgan va turmush tarzi, xo‘jaligi, urf-odat va marosimlari, me‘morlik, hunarmandchilik va kiyinishiga ko‘ra o‘ziga xos etnomadaniy identiklikda namoyon bo‘ladi.

Qashqadaryo vohasining tog‘li hududlarida joylashgan aholisi asosan tojiklardan iborat bo‘lgan G‘elon, Ko‘l, Bashir, Aspiduxtar kabi qishloqlarning o‘rta asrlarga xos uy-joy qurilishi tuzilishi, lokal infratuzilma, suv yordamida harakatlanuvchi tosh tegirmon, taom tayorlash, kiyinish, hunarmandchilik va dehqonchilik madaniyati ancha saqlangan;

Qashqadaryo vohasidagi tojiklarning etnik tarixi va etnomadaniyati rang-barang bo‘lib, uning o‘rganilishi va targ‘ib qilinishi etnoturizmni rivojlantirishga xizmat qiladi;

Tojiklar istiqomat qiluvchi hududlarda sayillar va bayramlar arafasida milliy o‘yinlar va etnosport turlari (kurash, arqon tortish, qarab tep (lanka), bahodirlar o‘yinlari va tosh ko‘tarish)ni o‘tkazib borish yoshlarning milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

REFERENCES. IQTIBOSLAR. СНОСКИ.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdaqi “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 820-son qarori // <https://lex.uz/docs/5193551>
2. Doniyorov A. X., Bo‘riyev O. B., Ashirov A.A. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi / Darslik. - Toshkent: “NIF MSH”, 2020. – B. 110.
3. Шерназаров А. Намунаҳо фолклори тоҷикони водии Қашқадарё. – Самарқанд: СамДУ, 2018. – С. 7-8.
4. Дала ёзувлари. Қашқадарё вилояти Касби тумани Қамаши қишлоғи. 2023 йил.
5. Дала ёзувлари. Қашқадарё вилояти Қарши шаҳри Арабхона маҳалласи. 2024 йил.